

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 93 (1692), 2026-yil 9-may, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## TINCHLIK VA FAROVONLIK – ENG KATTA SAODAT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni poytaxtimizdagi G‘alaba bog‘iga tashrif buyurdi.



Xotira — eng ezgu fazilatlar. Bugun mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatiga nazar tashlasak, ana shu xislatning umuminsoniy qadriyatiga, ustuvor va dolzarb vazifaga aylanib borayotganini ko‘ramiz. Binobarin, keksalarni ulug‘lash, muhtojlarga suyanib bo‘lish, yordam ko‘rsatish borasidagi sa‘y-harakatlar keng qamrovli tus olmoqda. Bu, ayniqsa, shu kunlarda qilinayotgan ishlarida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Urush o‘z nomi bilan urush. U talafot-u musibatsiz bo‘lmaydi. Ikkinchi jahon urushi tugaganiga sakson yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hamon uning oqibatlarini eslanadi, xotirlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev G‘alaba bog‘ida tashkil etilgan xotira marosimida ishtirok etdi. An‘anaga muvofiq, “Matonat madhiyasi” yodgorligi poyiga gulchambar qo‘ydi.

Ushbu majmuaga mo‘tabar ona va uning oilasi to‘g‘risidagi haqiqat asos qilib olingan. Ya‘ni barcha farzandi urushga ketib, hech biri omon qaytmagan oila, buyuk matonat va jasorat,

tuganmas sabr-qanoat timsoli — buyuk onaga qo‘yilgan haykal.

Bugun ushbu yodgorlik, umuman, o‘zbek xalqining urush yillaridagi jasoratini anglatuvchi G‘alaba bog‘i barcha uchun tabarruk ziyoratgohga aylangan. Bu yerga kelgan kishi borki, ko‘ngliga mung cho‘kadi, urush yillarini tasavvur qila boshlaydi. Ota-bobolari matonati, jasorati va qahramonligini anglay boshlaydi. Hozirgi tinchligimiz, farovon turmushimiz uchun shukrona aytadi.

— Bugun o‘ramizda sog‘-salomat yashab kelayotgan urush va mehnat faxriylari,

barcha nuroniyalarimizga alohida mehrimiz, ehtiromimizni izhor etamiz. Ushbu majmuaga buyuk g‘alabaga munosib hissa qo‘shgan ko‘p millatli xalqimizning jasorati va qahramonligini tarannum etadigan tabarruk maskan, desak, to‘g‘ri bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan O‘zbekiston aholisining qariyb 2 millioni Ikkinchi jahon urushida qatnashgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo‘lib, 158 mingi bedarak yo‘qolgan. 50 mingdan ortig‘i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo‘lgan, 60 mingdan

ziyodi nogiron bo‘lib qaytgan. O‘zbekistonlik 214 mingga yaqin askar va ofitserlar jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta‘minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan. G‘oyat og‘ir sharoitga qaramay, xalqimiz urush hududlaridan ko‘chirib kelingan 1,5 millionga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo‘lgan 250 ming yetim bolani o‘z bag‘riga olib, mehr ko‘rsatgan. Bular oddiy raqamlar emas, millionlab taqdirlardir.

Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, xalqimiz farovonligi va bu yo‘ldagi ortga qaytmas islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari — eng katta saodat. Binobarin, bugun dunyoda bo‘layotgan voqealarni barchamiz kuzataymiz, oqibatlarini ko‘rib, bilib turibmiz. Afuski, turli ziddiyatlar dunyo miqyosida tahlikali vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Bu iqtisodiyotdan boshlab barcha soha rivojiga to‘siq bo‘layotgani ham bor gap. Shunday vaziyatda tinchlik qadri yanada ortib, uning nechog‘liq bebaho ekanini yanada chuqurroq va teranroq anglaydi kishi.

Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTON – ROSSIYA: KENG QAMROVLI HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQLDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni amaliy tashrif bilan Moskvaga keldi.

“Vnukovo” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Mixail Galuzin va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Moskva shahridagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Subhat avvalida davlat rahbarlari G‘alabaning 81 yilligi munosabati bilan bir-birini samimiy qutadilar.

O‘zbekiston – Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini avvalgi oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro savdo hajmi barqaror oshib borayotgani, sanoat, energetika, metallurgiya va boshqa tarmoqlarda loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash sur‘atini saqlab qolish va ustuvor tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini jadallashtirishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish, shuningdek, hududlar darajasida faol aloqalarni davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvni yanada ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Rossiya rahbarlari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

President.uz

## QAHRAMONLARNI YOD ETISH, ULARNING JASORATIDAN IBRAT OLISH BIZNING MUQADDAS BURCHIMIZ

Xotira va qadrlash kuni — yuraklar titraydigan, chuqur izzitirob va iftixor tuyg‘ulari bilan to‘ladigan ulug‘ sana. Bu kun o‘tmishning og‘ir sinovlari, yo‘qotishlari va beqiyos jasoratini esga soladigan, shu bilan birga, kelajak oldidagi mas‘uliyatimizni yanada teran anglatadigan ma‘naviy sinovdir.

Ikkinchi jahon urushi... Bu so‘zlar ortida millionlab taqdir, uzilgan umrlar, ko‘zi yoshga to‘lgan onalar, otasini kutgan bolalar, sevgisini yo‘qotgan yoshlar qismati mujassam. Bu — insoniyat boshdan kechirgan eng dahshatli fojialardan biri.

Ammo ayni paytda inson irodasi, matonati va Vatanga muhabbati eng yuksak darajada namoyon bo‘lgan davrdir.

O‘zbekiston xalqi bu urushda mislsiz jasorat ko‘rsatdi. Millionlab yurtdoshlarimiz frontga otlandi, minglab

oilalar esa aziz yaqinlarini ortga qaytmas yo‘lga kuzatdi. Ular qaytishga va‘da bergan edi... Lekin urush va‘dalarni tinglamaydi. Orzularni chilparchin qiladi, taqdirini o‘zgartiradi.

Qanchadan-qancha onalar umri oxirigacha eshikka qarab, “balki o‘g‘lim kirib kelar” degan umid bilan yashadi. Qanchadan-qancha farzandlar otasining qo‘lini tutish baxtidan mahrum bo‘ldi. Bedarak yo‘qolganlar soni shunchaki raqam emas, bu — tugallanmagan taqdir, aytilyap qolgan so‘zlar, armon bo‘lib qolgan uchrashuvlar.

Davomi 3-betda

## O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrlı vatandaşlar!

Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni qutlug‘ ayyom — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabaning 81 yillik bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu unutilmas kunda, avvalo, jang maydonlarida tengsiz jasorat ko‘rsatib, insoniyatni fashizm balosidan xalos etishga munosib hissa qo‘shgan qahramon otoboblarimizning so‘nmas xotirasi oldida bosh egib, ta‘zim qilamiz. Bugungi kunda oramizda sog‘-omon yashab kelayotgan urush va mehnat faxriylari, nuroniy otaxon va onaxonlarimizga yuksak ehtiromimizni izhor etamiz.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz sarhadlari daxsizligini saqlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilish yo‘lida mardlarcha halok bo‘lgan azim-shijoatli harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasini mehr va hurmat bilan yodga olamiz.

Muhtaram do‘stlar!

El-yurtimiz fashizmga qarshi kurashda dunyodagi barcha tinchliksevar xalqlar bilan bir safda turib, buyuk g‘alabaga munosib hissa qo‘shdi. Bu bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, fashizmga qarshi urushda o‘sha davrda 6 million 800 ming kishidan iborat bo‘lgan respublikamiz aholisining 1 million 950 ming nafari ishtirok etgan.

Shundan yarim milliondan ziyod kishi jang maydonlarida halok bo‘lib, 158 mingdan ko‘prog‘i bedarak yo‘qolgan, 60 ming nafardan ortiq vatandoshimiz esa nogiron bo‘lib qaytgan. Oradan shuncha yil o‘tgan bo‘lsa-da, bu ayanchli raqamlar qalblarimizni hali ham izzitirobga soladi.

Urush davrida 214 ming nafar o‘zbekistonlik askar va ofitserlar jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan bo‘lsa, ularning 301 nafari eng oliy nishon — Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan, 70 nafar yurtdoshimiz esa uchala darajadagi “Slava” ordeni bilan mukofotlangan.

O‘sha olovli yillarda xalqimiz “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” deb kechayu kunduz buyuk safarbarlik ruhi bilan yashadi. O‘zbekiston frontning mustahkam ta‘minot bazasiga aylandi. Insonparvarlikni buyuk qadriyatga aylantirgan xalqimiz urush hududlaridan ko‘chirib keltirilgan 1 million 500 mingdan ortiq insonga, jumladan, ota-onasi va oilasidan judo bo‘lgan 250 ming nafar bolaga boshpana berib, ularga mehr-oqibat ko‘rsatdi.

Qadrlı yurtdoshlar!

G‘olib va muzaffar otoboblarimizning Vatanimiz ozodligi va xalqimiz osoyishtaligi himoyasi yo‘lidagi ibratli faoliyatini chuqur o‘rganishi va keng targ‘ib etish bo‘yicha biz ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahrida bunyod etilgan G‘alaba bog‘i hamda uning tarkibidagi “Xotira nuri” va “Millat fidoyilari” yodgorlik komplekslari xalqimiz uchun tabarruk maskanlarga aylanib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda inson qadriini ulug‘lash, xususan, urush va mehnat faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning sog‘lom va mazmunli hayot kechirishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirilmoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, joriy yilda bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 30 million so‘m miqdorida pul mukofotlari berilganini ta‘kidlash lozim. Urush qatnashchilari va nogironlari, mehnat faxriylarining salomatligini muhofaza qilish, ularni sanatoriylar, dam olish maskanlariga bepul va imtiyozli asosda yuborish bo‘yicha samarali tizim faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ushbu munavvar ayyom kunlarida joylardagi hokimliklar, jamoatchilik va yoshlar vakillari urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning xonadonlarida bo‘lib, oila a‘zolarining holidan xabar olib, ularga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz bo‘ylab “Burch, jasorat, matonat!” shiori ostida xotira marosimlari,

madaniy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, ommaviy sport musobaqalari o‘tkazilmoqda.

Qadrlı yurtdoshlar!

Bugungi g‘oyat tahlikali zamonning o‘zi barchamizdan jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlik, millatlar va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi do‘stlik va totuvlik muhitini yanada qadrlab yashashni talab etmoqda.

Hech qachon unutmaylik, milliy birlik va hamjihatlik — bizning bebaho boyligimiz, barcha yutuq va g‘alabalarimizning mustahkam asosidir.

Hozirgi murakkab davrda Vatanimiz mustaqilligini, xalqimiz osoyishtaligini asrash, iqtisodiy qudratimiz, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirish, jahon hamjamiyati, avvalo, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni zararli ta‘silardan himoya qilish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda. Ishonchim komil, bu borada 81 yil oldin g‘alaba bayrog‘ini jahon uzra baland ko‘tarishga munosib hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning, xalqimizning mardlik va matonat maktabi bizga madadkor kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, fashizm balosini bartaraf etishda jonbozlik ko‘rsatgan qardosh xalqlarni, barcha ezgu niyatli insonlarni bugungi shonli bayram bilan samimiy tabriklab, ularga barqaror taraqqiyot va farovonlik tilaymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Sizlarni, hurmatli faxriylarimizni, butun el-yurtimizni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salamatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga tinchlik va xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Mehnatkash va donishmand xalqimiz hamisha omon bo‘lsin!

Xotira va qadrlash ayyomi barchamizga muborak bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti











Farg‘onaning qadimiy tuprog‘ida bugun shunchaki binolar qurilmayapti, bu yerda yangi davr odamlarining halol tafakkuri, tabiati yuksalmoqda. Qadoq qo‘llar, peshonalardagi ter, yuzlardagi farishtali samimiyat va ertangi kunga qat‘iy ishonch — bularning barchasi yaxlitlashib, chinakam yangi O‘zbekistonning urib turgan ishtiyoqmand yuragiga aylanmoqda.



## Yurtimiz bo‘ylab



“

**Qadimiy va navqiron Marg‘ilon... Bu shaharga qadam qo‘yishi bilan inson vujudida ajib bir hissiyot uyg‘onadi. Aynan shu yerda, 35 gektar maydonda qad rostlagan Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasi qalbimizni ayri-ayri tarzda titratib yubordi. Qiymati 1,7 trillion so‘mlik bu mo‘jaz shaharcha faqatgina inshootlar to‘plami emas, o‘tmish bilan bugunning yuzlashuvi go‘yo.**

o‘zida saralanadi, tozalanadi. Zavoddagi yopiq zanjirli ekologik tizim insoniyatning tabiat oldidagi qarzini uzishga qaratilgan esa quvonarli: yomg‘ir va oqova suvlar qayta ishlab, ishlab chiqarishga yo‘naltiriladi, chang yutish moslamalari havoni toza

so‘zlari yodimda qoldi: “Majmuaya yiliga 250 ming xorijiy sayyohni jalb etishi kutilmoqda”. Yana bir gap. Bu majmuaga har bir yurtdoshimiz imkon topib, albatta, kelishi kerak.

\*\*\*

Xalqimizda eng oliy qadriyat nima? Albatta, oilasi, farzandlarini halol mehnat bilan boqish. Quva tumanidagi “Quva agrostar” korxonasida bo‘lgach, ayni shu qadriyat xalqaro standartlarga ulanib ketganiga guvoh bo‘ldik. Yiliga 5 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish, saqlash va qadoqlashni yagona tizimga birlashtirgan bu majmuaya chinakam ma‘noda milliy brend yaratmoqda. Xalqaro “Global G.A.P.” va “Halal” sertifikatlariga ega mahsulotlar o‘tgan yili ilk bor Yaponiya va Janubiy Koreya kabi “injiq” bozorlarga kirib bordi. Oddiy

35 foiz tejali, hosildorlik 25 foiz oshgan. Baliq yetishtiriladigan hovuzlardagi suv mineralarga boyib, to‘g‘ri uzumzorga boradi, qoramollarning organik chiqindisi yerni oziqlantiradi, panellari esa ham jarayonni quvvat bilan ta‘minlaydi. Tabiatning bunday mukammal, yopiq aylanma zanjiri inson aqli bilan birlashib, 110 gektar yerda 2,5 million dollarlik eksport mo‘jizasini yaratmoqda. Mazkur yondashuv endi butun respublikaga tarqaladi. Mutasaddilarning bildirishicha, bu bo‘yicha davlatimiz rahbari ayni manzilga tashrif chog‘ida topshiriq bergan.

\*\*\*

Yo‘l charchoqlari Quvadagi “Karkidon” suv omboriga yetganimizda zumda tarqab ketadi. Yashil qizlar o‘rtasida yastanib yotgan ko‘m-ko‘k moviy suv kishiga shunday bir sokinlik beradiki, shaharning

# “FARG‘ONA DEMANGIZ, PARIXONADUR”

Farg‘ona... Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”sida uning atrofi tog‘lar bilan o‘ralgani, feruza konlari, iqlimi, suvlari, shaharlari va mashhur kishilari haqida ishonchli bayon qiladi. “Muxtasar viloyatdur, oshliq va mevasi farovon”, deydi.

Uchoq zinalaridan tushib, bizni kutib turgan mezbunlar sari yurarkanman, to yetib borguncha darrov qo‘limga telefonimni olaman-u, asarning shu joylarini topib o‘qiyman. So‘ng boshimni ko‘taraman, yuzimga urilayotgan vodiy shamolidan tafakkurimda o‘tmishning ulug‘vor nafasini, balki mutlaqo yangicha, shiddatli va bunyodkor, yurak urishiga o‘xshagan ayri-ayri depsinishni his qilaman.

5-6-may kunlari O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, viloyat hokimligi hamda OAV uchun kontent tayyorlash markazi hamkorligida tashkil etilgan “Farg‘onada yangi O‘zbekiston nafari” press-turi doirasida bu mo‘jizakor vodiyini kezip, qog‘ozlardagi raqamlar hayotga ko‘chib, jonli nafas olayotganiga guvoh bo‘lib qaytdik.

Mamlakatimiz yetakchisining joriy yil 27-28-aprel kunlari viloyatga tashrif doirasida belgilab berilgan vazifalar, amalga oshirilgan hamda jarayondagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar silsilasiga sho‘ng‘irkanimiz, jurnalist o‘laroq o‘zimizni muazzam ijtimoiy asarning — inson qadri, mardonavor mehnat va yorug‘ kelajak haqidagi epopeyaning tamal toshi qo‘yilayotgan sahnalarida turgandek his qila boshladik. Gapimizning tublag‘asi yo‘q.

Dastlabki manzilimiz shahar bag‘rida qad rostlagan zamonaviy majmuaya — Farg‘ona shahridagi AT park bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil avgust oyidagi tashrif chog‘ida berilgan topshiriqlar asosida barpo etilgan bu salobatlil inshoot ichiga qadam qo‘yishingiz bilan mutlaqo boshqa aql o‘lchamiga tushib qolgandek bo‘lasiz. Bir vaqtning o‘zida 200 yigit-qizni bag‘riga chorlaydigan ayni dargohda raqamli olam asrorlarini o‘zlashtirayotgan yoshlarning ko‘zlarini ko‘rib, xursandchilik tuyasiz.

Tasavvur qiling: yiliga 3 mingdan ortiq yoshni o‘qitish, g‘oyadan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonlarga jalb etish uchun yaratilgan bu zamonaviy kovorking markazida mehnat qaynay boshlaydi. Aslida, oxirgi yillarda viloyat miqyosida AT xizmatlar hajmi to‘rt barobar o‘sib, eksport 23 million dollardan oshgani ham Farg‘ona yoshlarining uylarida o‘tirib dunyo bozorini zabt etayotganining amaldagi isboti. Hozir 139 ta rezident kompaniyaga ega bo‘lgan bu maskan 2025-yilda 22,7 million dollarlik xizmatlarni eksport qilishga ulgurdi. Kelgusida rezidentlar



Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.

sonini 200 taga, eksport hajmini esa 30 million dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Sun‘iy intellekt xabi, venchur fondlar, akseleratsiya dasturlari... Bularning barchasi Farg‘onaning ertangi kuni faqatgina ekin-tikin, og‘ir sanoatdan emas, balki intellektual salohiyatdan ham suv ichishini kafolatlaydi.

\*\*\*

Ijodiy safarimiz yo‘nalishi sarmoyalar va g‘oyalari uchrashadigan manzil — Investorlarga xizmat ko‘rsatish markazi tomon burildi. Besh gektar maydonni egallagan “Farg‘ona ekspozitsiya” majmuasi bir qaraganda qadimiy Ipak yo‘lidagi karvonsoyrolarning zamonaviy, muhtasham ko‘rinishi o‘laroq

pulga, sarmoyalar esa real zavodlarga aylanadigan o‘ziga xos inkubatoridir. 200 dan ortiq ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini namoyish etayotgan bu joyda davlat idoralari, tadbirkorlar va xorijiy investorlar bir stolda o‘tirib, Farg‘onaning ertangi iqtisodiyotini allaqachon chizma boshlaganiga guvoh bo‘ldik.

\*\*\*

Jurnalistlar bilan to‘la avtobusimiz yo‘lida Quvasoyning tog‘li hududlari sari quvib boradi. Ko‘zlagan manzilimiz — “Crown Ceramic” qo‘shma korxonasi. Zavod hududiga kirib, bir qarashda quloqni qomatga keltiruvchi, lekin kishiga boshqacha bir shijoat bag‘ishlovchi toshlar shovqini og‘ushiga tushdik. Bu

saqlaydi. Elektr sarfi 20 foiz kamaytirilgani, kunduz payti chiroqlardan voz kechilib, tabiiy yorug‘likdan foydalanilayotgani har bir qarig‘ yer, har bir kilovatt energiya uvul qilinmayotganidan dalolat. Italiya va Ispaniyani bilan bemalol bellashayotgan Farg‘ona plitalari bugun Qirg‘iziston va Tojikiston binolariga ko‘rk bag‘ishlamog‘da, ertaga esa butun Yevropaga yo‘l oladi. Korxonalar rahbarlarining aytishicha, bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajm jihatdan o‘xshashi nafaqat mintaqada, balki boshqa qit‘alarda ham yo‘q. Ular davlatimiz rahbari korxonaga tashrif chog‘ida, avvalo, zavod mahsulotlari bilan ichki bozorni ta‘minlash borasida topshiriq bergani, hozir shu bo‘yicha harakatlar ketayotganini aytdi. Ochig‘i, mamlakatimiz yetakchisining bunday topshiriq‘idan quyidagi hayotiy hikmatni ilg‘adim: o‘z tuprog‘imizdan chiqayotgan shunday noyob toshlar, avvalo, o‘z binolarimizni bezasin.

## Ruhiyat manzili

Qadimiy va navqiron Marg‘ilon... Bu shaharga qadam qo‘yishi bilan inson vujudida ajib bir hissiyot uyg‘onadi. Aynan shu yerda, 35 gektar maydonda qad rostlagan Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasi qalbimizni ayri-ayri tarzda titratib yubordi. Qiymati 1,7 trillion so‘mlik bu mo‘jaz shaharcha faqatgina inshootlar to‘plami emas, o‘tmish bilan bugunning yuzlashuvi go‘yo.

Karvonsoyrolar, hunarmandlar markazi, milliy bozor oralab yurar ekanman, dimog‘imga isiriq va yog‘och isi urilgandek, qulog‘imga hunarmandlar dastgohlarining ritimli ovozi quyilganidek tuyuldi. Ayniqsa, meni — bir ijodkorni hammadan ko‘ra ko‘proq to‘lqinlantirgan joyi majmuadagi “Otabek va Kumush uyi” muzeyi bo‘ldi. “O‘tkan kunlar” romanining har bir sahifasi bu yerda g‘isht va naqshga aylanib, jonlanib turganga o‘xshaydi. Men uch marta qayta o‘qigan muazzam romandagi o‘sha tanish darvoza, o‘sha muhit... To‘lqinlanib ketmaslikning, qaboqqa yosh tiqilmasligining iloji yo‘q. Taassurotlarimni faqatgina u yerda bo‘lganlarga tasdiqlasa kerak, nazarimda.

Boshqacha hissiyotlar bilan avtobusga qaytarkanmiz, direksiya mas‘ul xodimining

dehqon 10 sotix yeridan 250 million so‘m daromad topayotganini ko‘rib, yerning qadri, mehnatning zavqi nima ekanini vujudingiz bilan his qilasis. Korxonalar qamrovni yanada



kengaytirib, yangi eksport geografiasini ochish bo‘yicha tinmay harakat qilayapti. Ayniqsa, bu harakatlar yana xalqimizga xos fazilat — isrofini kamaytirishga asoslangani bilan hayron qoldiradi. Masalan, korxonada hosil ko‘pligidan yoki shamol tufayli to‘kilgan mevalar yig‘ilib, innovatsiya asosida danagidan yegulik, po‘chog‘idan o‘g‘it va yoqilg‘i olinmoqda.

\*\*\*

Quyosh tikkaga kelgan... Ketib borarkanmiz, avtobusimiz yo‘l bo‘yidagi mo‘jizaviy bir maydonda to‘xtaydi. Bu — agrovoltaika. Bir qarashda xuddi filmlardagi manzarani eslatadi: tepada quyoshdan energiya so‘rayotgan minglab yaltiroq panellar, ularning ostidagi salqin soyada esa yashnab turgan “avatar” uzumlari va nariqda o‘tlab yurgan zotdor qoramollar.

Qarang, yurtingimizning jig‘inak quyoshi endi nafaqat elektr bermog‘da, balki ekinlarga soya tashlab, tuproq namligini asramog‘da. Avstriyaning zamonaviy yomg‘irliatib sug‘orish tizimi tufayli suv 40 foiz, o‘g‘it

“Farg‘ona demanglar, parixonadur” degan jumla bor. Unda, shubhasiz, “Farg‘ona” va “parixona” so‘zlarining ildizi bir degan badiiy ishora bor. Men esa aynan shu jumlani safarnomaga sarlavha qilib olmoqqa ahd qildim.

Chunki Farg‘onaning qadimiy tuprog‘ida bugun shunchaki binolar qurilmayapti, bu yerda yangi davr odamlarining halol tafakkuri, tabiati yuksalmoqda. Qadoq qo‘llar, peshonalardagi ter, yuzlardagi farishtali samimiyat va ertangi kunga qat‘iy ishonch — bularning barchasi yaxlitlashib, chinakam yangi O‘zbekistonning urib turgan ishtiyoqmand yuragiga aylanmoqda. Buni shunchaki aql bilan anglab bo‘lmaydi. Buni shu shamoldan nafas olib, shu xalqning ko‘zlariga boqib, faqatgina yurak orqali his qilish mumkin. Farg‘ona gullamoqda. Farg‘ona yuksalmoqda. Bu yuksalish bizning — barchamizning mushtarak yorug‘ kunlarimiz dalolatgo‘yidir.

**Jonibek ALIJONOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“

**2025-yilda bunyod etilgan va yiliga 8 million kvadrat metr mahsulot ishlab chiqarishga qodir ushbu zavod 1 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlash va 35 million dollarlik eksport salohiyatiga ega. Xomashyoning 97 foizi o‘zimizniki — Quvasoy va Angren konlaridan keltiriladi. Bir kunda 600 tonna tosh va 200 tonna kaolin shu yerning o‘zida saralanadi, tozalanadi.**

taassurot qoldiradi. Sakkiz qavatli inshoot faqatgina ko‘rgazma zali emas, g‘oyalari

yerda mehnat mo‘jizasi yuz bermoqda: oyoq ostidagi oddiy soy toshi, tog‘lardagi qizil va kulrang kaolin qadoq qo‘lli ishchilar harakati va zamonaviy texnologiyalar sehiri bilan jahon bozorlarini lol qoldiradigan keramogranit plitalarga aylanmoqda.

2025-yilda bunyod etilgan va yiliga 8 million kvadrat metr mahsulot ishlab chiqarishga qodir ushbu zavod 1 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlash va 35 million dollarlik eksport salohiyatiga ega. Xomashyoning 97 foizi o‘zimizniki — Quvasoy va Angren konlaridan keltiriladi. Bir kunda 600 tonna tosh va 200 tonna kaolin shu yerning

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546.  
30570 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov  
Musahhir: Akbar Qarshiyev  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy